

**MAKTABGACHA TA'LIMDA AQLIY TARBIYA**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi*

*1-bosqich talabalari*

**Raxmonova Ruxsora**

**Hikmatullayeva Aziza**

**Qurbanmurodova Marjona**

**Annotatsiya:** *Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berishda ta'lim etakchi rol o'ynaydi. Chunki ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va tizimlashtirish, bilish jarayonlari, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi.*

**Kalit so'zlar:** *aql, sezgi, idrok, tafakkur, xayolni bilish jarayonlari o'quvchi, xotira mashqi, mutaxassis, aqliy rivojlanish.*

Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalarda voqeа va hodisalarni to'la aks ettiradigan yuksak darajadagi umumlashtirilgan bilimlar tizimini shakllantirishdan iboratdir. Bilim dunyoqarashning asosini tashkil etadi. Demak, bola tevarak-atrofdagi narsalar, ularning vazifasi sifati va xossalari (sinadi, pachoq bo'ladi, yirtiladi, to'kiladi) haqida, qaysi materialdan tayyorlanganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi. U tabiat hodisalari, ularning o'zaro bog'liqligi va qonuniyatları (yil fasllarining o'ziga xos belgilari, ular o'rtasidagi bog'lanishlar, hayvonlar, ularning hayoti va yashash tarzining tashkil qilinishiga, xulqiga, yashash sharoitiga mosligi va h.k.) ni bilib oladilar.

Jonsiz tabiat, o'simliklar, hasharot va hayvonlarni kuzatishi jarayonida tarbiyachi bolalarda borliq to'g'risidagi materialistik tasavvurlarni shakllantirib boradi. Bilimlarni egallab borish natijasida bolaning shaxsi ham shakllanib boradi. Bola san'atning har xil turlari to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab oladi.

Bilim insonning mehnatga munosabatini shakllantiradi. Aqliy faoliyatni rivojlantirish bilim hajmi va xususiyatiga bog'liq. Aqliy faoliyatni ivojlantirish esa psixik jarayonlarni sezgi va idrok etish, taassurot, xotira, fikrlash, tasavvur va nutqni shakllantirishni ham bildiradi. Bunda ularga aqliy faoliyatning g'oyat samaradorligini ta'minlaydigan his-tuyg'ular nozikligi va aniqligi, idrok etishning sobitqadamligi va to'laqonli, esda qolishning mustahkamligi hamda ongligi, tafakkur mantiqi va uning moslashuvchanligi, ijodiy xususiyat va mustaqillikka xos bo'lishi kerak.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'zlariga tushunarli bo'lgan ijtimoiy voqeа va hodisalar, kishilarning mehnati, umumxalq bayramlari, respublikamizda yashaydigan ba'zi xalqlar hayoti bilan tanishtiriladi. Bu tadbirlar ularda jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga qiziqish uyg'otish, Vatanga muhabbat tuyg'usi va baynalmilalchilik asoslarini shakllantirishga yordam beradi.

Aqliy ta'lif — maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish qobiliyatini muntazam va rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog'chasi dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar tizimi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Yosh avlodni har tamonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan ob'ektiv zaruratdir. Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri. Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam va maqsad asosida pedagogik ta'sir ko'rsatishdir. Demak, aql keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va xayolni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisi bo'lib, u yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, ko'nikma va malakalar, me'yorlar, qoidalar va boshqalarda ro'y beradi. Bu holat kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishi ni ta'minlovchi xilma-xil vositalar, metodlarni, kerakli shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalarning ma'lum maqsad asosidagi ta'sir etishdir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishni, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, ayniqsa, kattadir. Chunki aql his-tuyg'ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo'lgan jarayonlar yig'indisidir. Ahliy rivojlanish fikrning kengligida voqealarni har xil bog'lanishlarda, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiylashtirish qobiliyatida namoyon buladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyat jarayonida, dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o'quv, mehnat, samarali faoliyatlar: rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, applikatsiya, qurish - yasash jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishga ta'lif va tarbiya samarali ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatları va imkoniyatlarini bilish kerak.

Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika va psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etishda, bir tomonidan, bolaning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ikkinchi tomonidan,

bola organizmning umumiylar charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha toliqtirish bo'lmasisligi yo'llarini topish uchun matabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonuniyatlarini va imkoniyatlarini o'rganish bilan shugullanadi. Keyingi yillarda olib borilgan psixologik- pedagogik tadqiqotlarning natijalari matabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Bularning hammasi matabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim malaka va ko'nikmalar mazmunini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligidan dalolatdir.

Matabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib, bolalar tevarak-atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'ladir, asosiy fikrlash jarayonlarini egallab oladilar. Faqat yaxshi tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi, shuning uchun o'qituvchi va tarbiyachilarning asosiy vazifasi — bolaga muayyan maqsadni ko'zlab tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoit yaratishdir.

Aqliy tarbiya-bu aqlni rivojlantirish maqsadida yoshlarga mimtazam va maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir ko'rsatish. U yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, malaka va ko'nikmalarda, qoidalarda o'z ifodasini topgan ijtimoiy-tarixiy tajribani egallahning rejali jarayoni sifatida ro'y beradi. Bu ta'sir kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi xilma-xil vositalar, metodlar, sharoitlar yaratishni o'z ichiga oladi. Odamning aqli, uning aqliy rivojlanishi bilimlar hajmi, xususiyati va mazmunida namoyon bo'ladi. Ular aqliy faoliyatning jo'shqinligida, mustaqil ijodiy bilishga intilishda o'z ifodasini topadi.

Matabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlash ularning kelajakdag'i butun faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy tomonidan rivojlanib boradi. Atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan tarkib topgan tushunchalar sistemasini o'zlashtiradi. Natijada matabgacha ta'lim yoshda-gi bola tilini shunchalik egallab oladiki, unda muomala vositasi sifatida erkin foydalanadigan bo'lib qoladi.

Aqliy rivojlanish fikrning tengligida voqealarni har xil bog'lanishlarida, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiylashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Aql keng ma'noda sezish va idrok etishidan boshlab to tafakkur va hayoli o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir.

Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan belgilanadi (masalan,kattalarda mehnat faoliyati,bolalarda o'yin, o'quv faoliyati). Matabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma'lum maqsad bilan ta'sir etishidir. U bolalarga tevarak atrofdagi olam haqida bilimlar berishni,ularni sistemalashtirishni,bolalarda bilishga qiziqish

uyg'otishni,aqliy malaka va ko'nimklarni tarkib toptirishni,bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli ayniqsa kattadir. Bilimlar zahirasini egallash, aqliy faoliyatni va mustaqillikni rivojlantirish, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirish maktabda muvaffaqiyatli o'qish va bo'lg'usi mehnat faoliyatiga tayyorlanishning muhim shartlaridir.Bolalarning 6 yoshdan boshlab maktabda o'qishga o'tishi munosabati bilan ularni maktab ta'limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlanishi yetarli darajada bo'lislini ta'minlash tarbiyachilarining javobgarligini yanada oshiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlarini va imkoniyatlarini bilish kerak. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika va psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etishda, bir tomonidan, bolaning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ikkinchi tomonidan, bola organizmning umumiyl charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha toliqtirish bo'Imasligi yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonuniyatlarini va imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalarda voqeа va hodisalarni to'la aks ettiradigan yuksak darajadagi umumlashtirilgan bilimlar tizimini shakllantirishdan iboratdir. Bilim dunyoqarashning asosini tashkil etadi. Demak, bola tevarak-atrofdagi narsalar, ularning vazifasi sifati va xossalari (sinadi, pachoq bo'ladi, yirtiladi, to'kiladi) haqida, qaysi materialdan tayyorlanganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi. U tabiat hodisalari, ularning o'zaro bog'liqligi va qonuniyatlarini (yil fasllarining o'ziga xos belgilari, ular o'rtasidagi bog'lanishlar, hayvonlar, ularning hayoti va yashash tarzining tashkil qilinishiga, xulqiga, yashash sharoitiga mosligi va h.k.) ni bilib oladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash vositalari sezilarli darajada kengayib bormoqda. O'qituvchi bolalarning turli o'yinlarini tashkil qiladi, kuzatishlar olib boradi, sinfda sanash, rasm chizish, modellashtirish, nutqni o'rgatadi. Maishiy faoliyat jarayonida kattalar bolalarni turli xil narsalardan foydalanishga, ishlashga o'rgatadi. Ota-onalar va o'qituvchilar doimiy ravishda bolaning oldiga amaliy, o'yin va kognitiv vazifalarni qo'yadilar, ularni hal qilish bilim va ko'nikmalarni, kognitiv jarayonlar va qobiliyatlarni shakllantirishga, turli xil faoliyat turlarini, kognitiv faoliyat motivlarini rivojlantirishga, yanada takomillashtirishga olib keladi. nutq va boshqalar.

Bolaning aqliy rivojlanishining asosi uning faol faoliyatidir. Lekin bu faoliyatning o'zi ta'lim va tarbiya ta'sirida shakllanadi, shakllanadi. Shunday qilib, kattalar, pedagoglar oldida ikkita vazifa turibdi: aqliy tarbiyani amalga oshirishda, ularning sa'y-harakatlarini ma'lum yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan turli xil faoliyat turlarini shakllantirishga yo'naltirish va ulardan bolani aqliy tarbiyalash maqsadida foydalanish. Erta yoshdayoq

muloqot va o'yin ob'ektiv faoliyat asosida shakllanadi va mehnatning boshlanishi paydo bo'ladi. Ularning keyingi rivojlanishi maktabgacha yoshdagi bolalikda sodir bo'ladi .

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Andreev V.I. Pedagogika: Proc. ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish kursi / V.I. Andreev - 2-nashr. - Qozon: "Innovatsion texnologiyalar markazi", 2010 - 608 b.
2. Anikeeva N.P. O'yin ta'limi. M.: Eksmo, 2008. - 322 b.
3. Belkin A.S. Yosh pedagogikasining asoslari: Prok. talabalar uchun nafaqa. yuqoriroq ped. darslik bosh / A.S. Belkin - M.: Akademiya, 2008. - 192 p.
4. Blonskiy P.P. Xotira va fikrlash: Kitobda. sevimli. aqldan ozgan. ishlab chiqarish. - M.: Oliy mакtab, 2011. - 404 b.
5. Bojovich L.I. Tanlangan psixologik ishlar / Ed. DI. Feldshteyn. M.: MPSI, 2014. - 710 b.
6. Bojovich L.I. Shaxs va uning bolalik davrida shakllanishi. M .: Vlados, 2009. - 512 p.